

LAVANDA (LAVENDULA ANGUSTIFOLIA) O'SIMLIGI KIMYOVIY VA DORIVORLIK XUSUSIYATI TAHLILI

I.I. Sobirov

ADPI, Aniq va tabiiy fanlar o'qitish metodikasi
fakulteti, biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Sh.S.Qo'ldashev

ANDQXAI, O'simliklar himoyasi, agrokimyo va tuproqshunoslik fakulteti, Tuproq
bonitrovkasi va yer resurslaridan foydalanish yo'nalishi 1-bosqich talabasi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada Lavanda (*Lavendula angustifolia*) o'simligi kimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyati bilan boshqa o'simliklardan ajralib turishi haqida ma'lumot keltirilgan.

Annotation: This article provides information on how lavender (*Lavendula angustifolia*) differs from other plants by its chemical composition and medicinal properties.

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, чем лаванда узколистная (*Lavendula angustifolia*) отличается от других растений своим химическим составом и лечебными свойствами.

Kalit so'zlar: Dorivor, tabobatda qo'llanilishi, dori vositalari, kimyoviy tarkibi, sanoat.

Key words: Medicine, use in medicine, drugs, chemical composition, industry.

Ключевые слова: Медицина, применение в медицине, лекарственные средства, химический состав, промышленность.

Har qanday zamon va makon tabiatida o'sadigan o'simliklar o'ziga xos xususiyatlari ularda kechadigan fiziologik jarayonlar bilan insonlarni qiziqtirib keladi. Xususan, dorivor o'simliklarning fiziologik xususiyatlari boshqa o'simlik xususiyatidan yuqori o'rinda turadi. Bunday o'simliklar xalq tabobati, farmasevtika, tibbiyot va sanoatda muhim ahamiyat kasb etadi. Dorivor o'simliklar inson salomatligi uchun tabiiy dori vositasi hisoblanadi.

Fransiya, Italiya, Ispaniya, Vengriya, Moldaviya, Qrim, Rossiyaning Krasnodar o'lkalarida keng tarqalgan Lavanda (*Lavendula angustifolia*) o'simligi Yalpizdoshlar / Labguldoshlar (*Lamiaceae* Lindl. / *Labiatae* Juss.) oilasiga mansub bo'yi 50-60 sm bo'lgan doimiy yashil buta hisoblanib, guli och ko'k, binafsha yoki havorang, to'pgul bo'lib yig'ilgan, yoz oylarida kuchli hushbo'y hid chiqarib gullaydi. O'simlikka gullari achchiq ta'm beradi.

1-jadval

Tibbiyot va sanoatda ishlatiladigan Lavanda (*Lavendula angustifolia*) o'simligi haqidatahlil

Nomi	Lotincha nomi	Hayot shakli	O'sish holati	Ahamiyati	O'sish joyi
Lavanda	<i>Lavendula angustifolia</i>	Doimiy yashil buta	Tabiiy yovvoyi holda o'sadi	Dorivorlik xususiyati va efir moyga boyligi	Quruq tog' yonbag'rida

Lavanda (*Lavendula angustifolia*) o'simligi ildizi kuchli rivojlanganligi sababli suvsizlikka va sovuqqa chidamli o'simlik hisoblanib, ildizi 40-50 ta uzun ipsimon ildizchalardan iborat. Tuproqqa 2 m chuqur kirib boradi. Sershox, bir tupida 400-800 ta poya hosil qiladi. Mevasi qo'shaloq, 4 ta yong'oqchadan iborat, rangi sariq-jigarrang. Ekilgan ko'chatlardan 2 yildan boshlab 20-25 yilgacha hosil olinadi. Har 6-7 yilda lavandazorlar yaratildi.

Lavanda (*Lavendula angustifolia*) o'simligini dorivor o'simliklar qatoriga kiritilishining asosiy sababi shundaki, uning guli, bargi va poyasi tarkibiga kiruvchi bir qancha dorivor moddalar, xususan, efir moyining asosiy komponenti bo'lgan linalol spirti va uning sirka efiri, linadil asetat va ularga qo'shimcha ravishda, moy tarkibiga valerik aldegid, kumarin, karyofilin, limonen, butirik, valerik va kaproik kislotalar mavjudligidir.

2- jadval

Lavanda (*Lavendula angustifolia*) o'simligining kimyoviy tarkibi (%).

Moddalar nomi	Qaysi organda ko'p miqdorda bo'lishi	% miqdori
Tanninlar	Gulida	12
Efir moylar	Gulida	1.5-2.5
	Poyada	0.19
	Bargda	0.37
Linalol va linadil asetat	Gulidagi moy og'irligi bo'yicha	28-80

LAVANDA (*LAVENDULA ANGUSTIFOLIA*)

Xalq tabobati va tibbiyotda lavanda o'simligi gulidan tayyorlagan dori vositalari tinchlantiruvchi ta'sirga ega, u bosh og'rig'i uchun, bakteriyalarning ko'payishini oldini olishda, fiksatsiya qiluvchi, antikonvulsant ta'sir sifatida, meteorizmga qarshi ta'sir qilishda va diuretik sifatida onkologik kasalliklarni davolashda samarali qo'llash mumkinligi haqida ma'lumot juda ham ko'p. Bundan tashqari hozirgi vaqtda lavanda yog'i ko'plab ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Xususan, dorivor va parfyumeriya-kosmetik preparatlar, alkogolli ichimliklar, keramika va bo'yoq sanoatida qo'llaniladi.

Yuqorida kimyoviy tarkibini o'rgangan holda kasalliklarga davo qilishda qo'llash mumkin bo'lgan o'simlik haqida qisqacha ma'lumot berildi. Ko'pgina kasalliklariga davo qilish maqsadida ishlatiladigan o'simliklar yuqorida keltirilgan o'simlikning o'zi bilan chegaralanmaydi. Bundan tashqari, yana bir qancha dorivor o'simliklarning kimyoviy

tarkibini o'rgangan holda ko'pgina kasalliklarga davo topish maqsadida tabiiy dori vositalar tayyorlanib kelinmoqda.

Keyingi izlanishlarda ushbu Yalpizdoshlar / Labguldoshlar (*Lamiaceae* Lindl. / *Labiatae* Juss.) oilasiga mansub Lavanda (*Lavendula angustifolia*) o'simligining dorivor o'simliklar qatorida turgan o'rni tahlilini amalga oshirish rejalashtirilgan. Shu orqali bu o'simlik kimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lgan holda, unga yaqin boshqa turlarni ham kimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyatini o'rganishni amalga oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI VA INTERNET SAYTLARI

1. Абдуллаев А.А., Мадумаров Т.А., Дариев А.С., Сатторов Б.Х., Рўзматов Э.Ю., Сирожидинов Б.А. Биологиядан қисқача изоҳли луғат.//Методик қўлланма.-Тошкент: Наврўз, 2016.-йил 174-бет

2. Farmatsevtika institutlari uchun darslik. Q2/ Н.Х. Xolmatov, О 'А. Ahmedov; О 'zR Oliv va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — Т.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. —yil 190-bet

3. М.А. Кузнецова. Лекарственное растительное сырье и препараты. М., 1987. — 190 с.

4. Н.И. Гринкевич, Л.Н. Софронич. Химический анализ лекарственных растений. М., 1983. 176 с

5. <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?>

6. www.Lex.uz.

7. WWW.Lavanda

8. www.doridarmon.uz

Toxir, T., Arabboy, Y., Zuxriddin, G., & Abdurauf, G. (2022). Theoretical And Practical Pedagogical Bases of Formation of Professional Culture of Students of Military Education. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2, 19-20.

Abdugafurovich, T. T. (2021). The importance of pedagogical ideas in the formation of youth. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1066-1069.

Tahirjon, T. (2022). THE CONCEPT OF SPIRITUALITY AND PATRIOTISM IN THE MIND OF STUDENTS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(10), 299-304.

Abdugafurovich, T. T. (2022). ЁШЛАРДА СОҒЛОМ МАФКУРА ВА БАТАНПАРВАРЛИК ТУЙҒУСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(8), 846-849.

Abdugafurovich, T. T., & Shokhmukhammad, M. (2021). THE ROLE OF EDUCATING STUDENTS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM IN

EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(9), 126-130.

Тургунбаев, Т. А., & Каримов, Ў. У. (2020). ҲАММА НАРСА-ФРОНТ УЧУН, ҲАММА НАРСА-ҒАЛАБА УЧУН!(ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДА ҚОЗОНИЛГАН ҒАЛАБАНИНГ 75 ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНАДИ). Интернаука, (19-4), 52-53.